



journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

## RECLAMATION CONDITION OF DIFFERENT LEVELS OF SALINE SOILS IN DOSTLIK DISTRICT

**A. N. Karimov**

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Tashkent, Uzbekistan

**S. B. Karimova**

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek  
Tashkent, Uzbekistan

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** saline soils, soil water properties, salinized lands, geomorphological conditions, land reclamation, vertical and horizontal ditches.

**Received:** 12.12.22

**Accepted:** 14.12.22

**Published:** 16.12.22

---

**Abstract:** It consists of soil condition in Dostlik district, factors causing salinity, causes of salinity and the resulting floristic condition (in the case of cotton) and effective solutions to salinity.

## DO'STLIK TUMANIDAGI TURLI DARAJADAGI SHO'RLANGAN TUPROQLAR MELIORATIV XOLATI

**A. N. Karimov**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

**S. B Karimova**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** sho'rangan tuproqlar, Tuproqning suv xossalari, sho'rxoklashgan yerlar, geomorfologik sharoit, Melioratsiya, tik va yotiq zovurlar.

**Annotatsiya:** Do'stlik tumanidagi tuproqlar holati, sho'rلانishni keltirib chiqaruvchi omillar, sho'rланishning sabablari va ular natijasida hosil bo'lган floristik holat (g'o'za misolida) va sho'rланishning samarali yechimlaridan iborat.

---

## МЕЛИОРАТИВНОЕ СОСТОЯНИЕ РАЗНОУРОВНЕВЫХ ЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВ ДОСТЛИКСКОГО РАЙОНА

**A. Н. Каримов**

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
Ташкент, Узбекистан*

**C. Б. Каримова**

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека  
Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** засоленные почвы, водные свойства почвы, засоленные земли, геоморфологические условия, мелиорация, вертикальные и горизонтальные рвы.

**Аннотация:** Он состоит из состояния почвы в Достликском районе, факторов, вызывающих засоление, причин засоления и, как следствие, флористического состояния (в случае хлопчатника) и эффективных решений проблемы засоления.

### KIRISH

Do'stlik tumani Mirzacho'l okrugining shimoliy tekislik qismida joylashgan. Yer osti suvlarning harakatlanish oqimi ya'ni oqib chiqib ketish uchun qulay sharoit yo'q. Iqlimi quruq, shuning uchun bo'lsa kerak, bu maydonda turli darajada sho'rangan, sho'rxoklashgan yerlar ko'p shakllangan. Sho'r yerlarning holatini tubdan yaxshilash uchun bu maydonlarni tuproq-grunt, yer osti va yer usti suvlari, tuproqning ona jinsini vujudga keltiruvchi tog' jinslarini ma'lum chuqurliklargacha o'rganishni taqozo etadi.

### ASOSIY QISM

Sug'orish jarayonida tuzlar harakatiga, tartibotiga, muvozanatiga alohida e'tibor berilishi yaxshi natijalarga olib keladi. Tuzlarning asriy va davriy harakat qoidalarini va genezisini o'rganishgina ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini belgilashga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tuproqdagi suvda eruvchi tuzlarning umumiyligi miqdori 0,3%dan ko'p bo'lsa, bunday tuproqlar sho'rangan tuproqlar deyiladi. Tuproqlardagi tuzlar qaysi va qanday bo'lishidan qat'iy nazar zararli, zaharli deb yuritiladi. Bu tushunchalarni to'la-to'kis to'g'ri deb bo'lmaydi, sababi — tuproqning sho'rلانish darajasini belgilash tartiblari, qoidalari ko'p. Tuzlarning zararli, zaharli, deyish ham to'g'ri emas, chunki tuzlar eng avvalo anionlar va kationlar yoki elementlardan iborat birikmalardir. Bu birikmalar tarkibidagi ionlar yoki elementlar avvalo shu tuproq uchun yot narsa emas, me'yordan ko'p bo'lganda organizmdagi «apenditsit» kabi zararli bo'ladi va undan ozod bo'lishga to'g'ri keladi. Boshqacha nuqtayi nazardan qarasak, bu ionlar yoki elementlar har xil o'simliklar uchun oziqa rolini bajaradi. Tuproqlardagi kaliy, magniy, natriy, xlor, sulfat, karbonat va gidrokarbonat ionlari, ayniqsa metallar va azot, fosfor va oltingugurt o'simlik uchun zaruriy oziqa elementlar qatorida turadi. Demak, bu ionlar ayni vaqtida zaruriy ionlar bo'lib, faqat

me'yordan ortiqcha bo'lgan vaqtdagina o'simlikka bevosita yoki bilvosita zarar yetkazishi mumkin. (Yo'ldoshev, 2008).

Bu tuproqlar mexanik tarkibga ko'ra har xil bo'lib, Toshkent va Nanay siklidagi lyossli terrasalarning tuproqlari og'ir qumoqli mexanik tarkibga ega bo'lsa, Mirzacho'l va Sirdaryo siklidagi terrasalarida o'rta va yengil qumoqlidir.

Jumladan, tumanimizda tarqalgan tuproqlar mexanik tarkibi ya'ni sho'rланish darajasi har xil. Do'stlik tumani hududidagi sho'rланган va past darajada sho'rланган yerlardagi g'o'zaning holatini misol qilishimiz mumkin.

1-rasm.



a

б

a) sho'rланган yerlardagi g'o'zaning holati    b) past darajada sho'rланган yerlardagi g'o'zaning holatini

Tuproqning suv xossalari — nam sig'imi, suv o'tkazuvchanligi, namlikni ko'tarish qobiliyati, bug'lash qobiliyati suv va eritmalarни harakatga keltirish va boshqalardan iborat. Suv xossalari o'rganish birinchi navbatda, har xil loyihalar asosi uchun, jumladan sho'r yuvish, sug'orish ishlarini sifatli bajarish maqsadlarida zarur.

Sho'r tuproqlar qatoriga sho'rxoklar, sho'rxoksimon tuproqlar, sho'rtoblar ham kiradi va xilma-xil omillar ta'sirida hosil bo'ladi. Sho'r tuproqlarni shakllantiruvchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) iqlim;
- 2) geologik tuzilish;
- 3) geomorfologik sharoit;
- 4) gidrogeologik sharoit;
- 5) yerdan foydalanish xarakteri.

Ko'rsatilgan omillar har xil sharoitdagi tuproqlarning sho'rланishiga bir xilda ta'sir etmaydi. Masalan, Do'stlik tumani hududida geomorfologik sharoit asos bo'lsa, boshqa bir hududda geologik tuzilish dominant bo'lishi mumkin. Bu jarayonga landshaftlar o'zlarini boshqarishi ham ta'sir ko'rsatadi. (Abdullayev,2000, Abdullayev , Abdurahmonov 1989).

Mutaxassislarning fikriga ko'ra tumanimiz va unga yondosh hududlarda 2 tipdagi tik (vertikal) va yotiq (gorizontal) zovurlar kerakligini isbot qilgan. Bunda tik quduqlar (zovurlar) sizot suvlari 10-15 m chuqurda bo'lgan chuqur sho'rxokli yerlar uchun ishlatalishi maqsadga muvofiqdir. Yotiq zovurlar sizot suvlarining sathini 2,5-2,8 m chuqurda ushlab turishi kerak, lekin buning uchun zovur chuqurligi 3-3,5 m bo'lishi kerak. Tajribalarning ko'rsatishicha, bu chuqurlikdagi zovurlar o'zining ko'rinish holatini tezda yo'qotadi, surilmalar bo'ladi, shuning uchun yopiq zovur tizimi bu mintaqaga ma'qul. Bunda asbotsement yoki polietilen trubalardan foydalilaniladi. Trubalaming uzunligi 0,3-0,7 m bo'lib, filtr qismi 0,15 m kenglikda shag'al bilan to'ldiriladi. Lekin bizning hududimizda asosan 2 tipdagi tik (vertikal) va yotiq (gorizontal) zovurlar keng tarqalgan.

Olingen malumotlarga ko'ra Do'stlik tumanida sug'oriladigan yerlar maydoni 33.4 ming hektar. Shundan 17.9 ming hektar yerga paxta 13.7 ming hektar yerga g'alla, 1.8 ming hektar yer maydoniga boshqa turdag'i ekinlar ekiladi. Tomorqa ho'jaligini yo'lga qo'yilishi va "Yashil makon" loyihasi asosida tumanda issiqxonalar va mevazorlar maydonini ulushi ortib bormoqda. Tumandagi sug'oriladigan tuproqlarning 20 foiziga yaqin kuchsiz sho'rangan, 50 foiziga yaqini o'rtacha sho'rangan, qolganlari esa kuchli sho'rangan tuproqlardan iborat. Olimlarni fikriga ko'ra tuproqlarni sho'lanish darajasini bir darajaga o'sishi hosildordikni 8-15 foizgacha pasayishiga olib keladi. Shuning uchun tuproqlarni meliorativ holatini yaxshilash eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda tumanimizdagi tuproqlarning meliorativ holatiga tabiiy va antronogen omillarning ta'siri katta bo'lib tuproqlarning sho'rланishi, hosildorligini pasayib ketishini oldini olish uchun majmuali chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga e'tiborga olish zarur deb hisoblaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Yo'ldoshev G'. Meliorativ tuproqshunoslik.-Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2008.
2. Abdullayev S. Tuproq melioratsiyasi. T., 2000.
3. Abdullayev H.A., Abdurahmonov A. Sho'rangan tuproqlar va ularning melioratsiyasi. T., 1989.